



## AMERIKA ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK TAHLILNING AHAMIYATI

Qurbanova Shahlo O'ktamovna

**ANNOTATSIYA** Ushbu maqolada Amerika adabiyotida psixologik tahlilning shakllanishi, rivojlanishi va badiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Realizm, modernizm va postmodernizm adabiy oqimlari kontekstida inson ruhiyatini ochib berish usullari ko'rib chiqiladi. Henry James, William Faulkner, Ernest Hemingway, Toni Morrison va Don DeLillo kabi yozuvchilar ijodida psixologik tahlilning turli shakllari va metodlari yoritiladi. Ayniqsa, White Noise romanida mass-media va texnologik muhitning inson ruhiyatiga ta'siri tahlil qilinib, Amerika adabiyotida psixologik tahlilning yangi bosqichlari ko'rsatib beriladi.

**KALIT SO‘ZLAR:** psixologik tahlil, Amerika adabiyoti, realizm, modernizm, postmodernizm, ong oqimi, ruhiyat, ong, mass-media, White Noise.

**АННОТАЦИЯ** В данной статье анализируются формирование, развитие и художественно-эстетическое значение психологического анализа в американской литературе. Рассматриваются методы раскрытия человеческой психики в контексте литературных направлений реализма, модернизма и постмодернизма. Освещаются различные формы и методы психологического анализа в произведениях таких писателей, как Генри Джеймс, Уильям Фолкнер, Эрнест Хемингуэй, Тони Моррисон и Дон Делилло. Особое внимание уделяется роману White Noise, в котором исследуется влияние масс-медиа и технологической среды на человеческую психику, что демонстрирует новые этапы психологического анализа в американской литературе.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** психологический анализ, американская литература, реализм, модернизм, постмодернизм, поток сознания, психика, сознание, масс-медиа, White Noise.

**ANNOTATION** This article analyzes the formation, development, and artistic-aesthetic significance of psychological analysis in American literature. The methods of revealing the human psyche are examined in the context of the literary movements of Realism, Modernism, and Postmodernism. Various forms and methods of psychological analysis in the works of such writers as Henry James, William Faulkner, Ernest Hemingway, Toni Morrison, and Don DeLillo are highlighted. Particular attention is paid to the novel White Noise, where the influence of mass media and the technological environment on the human psyche is analyzed, demonstrating new stages of psychological analysis in American literature.

**KEYWORDS:** psychological analysis, American literature, realism, modernism, postmodernism, stream of consciousness, psyche, consciousness, mass media, White Noise.



## KIRISH

Amerika adabiyoti inson ruhiyati, ichki kechinmalar va ong jarayonlarini o‘rganishda o‘ziga xos uslublarni namoyon qilgan muhim adabiy maktablardandir. XIX asrdagi realizm davrida yozuvchilar inson hayotini tashqi voqealar orqali tasvirlash bilan bir qatorda, qahramonlarning ichki qarorlarini va ruhiy iztiroblarini yoritishga alohida e’tibor qaratganlar. XX asr modernizmi esa psixologik tahlilning yangi metodlarini ong oqimi, ichki monolog, vaqt va xotira fragmentatsiyasi kabi usullarni keng joriy etdi. Shu orqali adabiyot inson ruhiyatining murakkab va ziddiyatli qatlamlarini ochib berishga qaratildi.

Shuningdek, Amerika jamiyatida sodir bo‘lgan tarixiy voqealar fuqarolar urushi, sanoatlashtirish, irqiy tengsizlik, feministik harakatlar va globallashuv jarayonlari adabiy asarlarda psixologik tahlilning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Afro-amerikalik yozuvchilar ijodida ruhiy travmalar va tarixiy xotira psixologik tahlilning markaziy masalasiga aylandi. Postmodernizm davrida esa inson ruhiyatini tahlil qilish yangi bosqichga ko‘tarilib, mass-media, texnologiyalar va iste’mol jamiyati ongga qanday ta’sir qilishi o‘rganildi. Amerika adabiyotida psixologik tahlil faqat estetik vosita emas, balki ijtimoiy-falsafiy jarayonlarni anglashning ham muhim metodiga aylangan.

## ASOSIY QISM

Amerika adabiyotida psixologik tahlilning shakllanishi, avvalo, XIX asr oxiridagi realizm adabiy oqimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu davrda yozuvchilar inson hayotini faqat tashqi voqealar orqali emas, balki uning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, ong va qaror qabul qilish jarayonlari orqali yoritishga intildilar. Chunki Amerika jamiyati o‘sha davrda katta ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni boshdan kechirayotgan edi: fuqarolar urushi oqibatlari, industrializatsiyaning tezlashuvi, shahar hayotining murakkablashuvi, ayollar va afro-amerikaliklarning huquqlari masalalari yozuvchilarni inson shaxsining ruhiy qiyofasini chuqr tahlil qilishga undadi.

Realizm davri yozuvchilaridan Henry Jamesning ijodi psixologik tahlilning yorqin namunasidir. Uning The Portrait of a Lady asarida bosh qahramon Isabel Archerning hayotiy qarorlari, mustaqil shaxs sifatida o‘z taqdirini belgilashga intilishi chuqr psixologik tahlil orqali tasvirlanadi. James qahramonning tashqi harakatlarini emas, balki uning ichki dunyosini shubhalarini, iztiroblarini, ruhiy qarama-qarshiliklarini ko‘rsatishga urg‘u beradi. Shu jihatdan uning asarlari ko‘pincha “psixologik roman” deb ataladi. Bundan tashqari, Edith Whartonning The House of Mirth yoki Ethan Frome kabi asarlari ham psixologik tahlil vositasida jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlarni yoritadi. Wharton qahramonlarining ichki dunyosini tasvirlash orqali o‘sha davrdagi ijtimoiy qatlamlarning shafqatsiz qoidalari inson ruhiyatiga qanday ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi.

Amerika realizmida psixologik tahlilning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat edi:

Ichki qaror qabul qilish jarayonini tasvirlash	Qahramonlar voqealarga passiv munosabatda emas, balki o‘z ichki qarashlari, shubhalarini va his-tuyg‘ularini
--	--



	bilan kurashda bo‘ladilar.
Ijtimoiy muhitning ruhiyatga ta’siri	Realist yozuvchilar inson ruhiyatini jamiyatdan ajratib ko‘rsatmaydilar, balki uni ijtimoiy muhit va ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog‘lashga harakat qiladilar <sup>89</sup> .
Portret va tafsilotlarda psixologik ma’no	Qahramonlarning tashqi qiyofasi, harakatlari va nutqi ularning ruhiy kechinmalarini ochib berishga xizmat qiladi.
Dialoglarda yashirin psixologiya	Realist yozuvchilar dialoglarni nafaqat voqealarni rivojlantirish uchun, balki qahramonlarning ichki dunyosini ochish uchun ham ishlata dilar.

#### JADVAL 1.1

Shu tariqa, Amerika realizmi psixologik tahlilni badiiy ijodning asosiy vositasiga aylantirdi. U insonni tashqi dunyo bilan emas, balki uning ichki olami, ruhiy kechinmalarini va qaror qabul qilish mexanizmlari orqali ko‘rsatishga intildi. Bu an’ana keyinchalik modernizm va postmodernizm davrida yanada rivojlanib, psixologik tahlilning turli metodlarida o‘z aksini topdi.

XX asr boshlarida Amerika adabiyotida modernizm oqimi kuchli ta’sir ko‘rsatdi va bu davr psixologik tahlilning yangi bosqichi sifatida baholanadi. Modernist yozuvchilar inson ruhiyatining murakkabligi, onging doimiy harakati, xotira va vaqtning nisbiy qabul qilinishi kabi masalalarga alohida e’tibor qaratdilar. Realizm davrida inson ruhiyati asosan tashqi voqealar bilan bog‘liq holda tasvirlangan bo‘lsa, modernizm davrida yozuvchilar voqealarni emas, balki ongning uzlusiz oqimini tasvirlashni maqsad qildilar.

Modernizm davrida eng muhim metodlardan biri bu ong oqimi (stream of consciousness) usuli bo‘lib, u inson ongidagi fikrlar, xotiralar, orzular va hissiyotlarning tartibsiz oqimini bevosita tasvirlashni anglatadi. Ushbu usul qahramon ruhiyatini chuqur tahlil qilish imkonini yaratadi, chunki ong oqimi inson tafakkurining yashirin qatlamlarini, ong osti jarayonlarini ham ochib beradi.

Amerika adabiyotida ong oqimi usulining eng mashhur namunalaridan biri bu William Faulknerning ijodidir. Uning The Sound and the Fury romani ong oqimi texnikasi asosida yozilgan bo‘lib, unda turli qahramonlarning ruhiy dunyosi turli nuqtai nazarlardan ochib beriladi. Asarda vaqtning chiziqli bo‘lmagan tasviri, xotira parchalari va subyektiv idrok orqali inson ruhiyatining ichki murakkabligi ko‘rsatiladi. Faulkner qahramonlari tashqi voqealardan ko‘ra, o‘z ichki dunyolarida yashaydilar, va kitobxon ularning ruhiy tahlili orqali voqealarni anglaydi. Modernizm davrida yana bir yirik yozuvchi Ernest Hemingway bo‘lib, u ong oqimi texnikasidan kamroq foydalangan bo‘lsa-da, uning “muz tog‘i

<sup>89</sup> James, H. (2019). The Portrait of a Lady. Boston: Houghton Mifflin.



nazariyasi” psixologik tahlilning yangi shaklini namoyish etadi. Hemingway dialoglarda va qisqa jumlalarda qahramonlarning tashqi so‘zлari ortida yashirin his-tuyg‘ularni kitobxonning o‘zi anglab olishiga imkon yaratadi<sup>90</sup>. Masalan, The Sun Also Rises romanida qahramonlar urushdan keyingi ruhiy bo‘sliq va ma’naviy iztiroblarni bevosita aytmaydilar, biroq ularning suhbatlari va xatti-harakatlari ortida chuqr psixologik kechinmalar yashirinib yotadi.

Modernizmning psixologik tahlilga qo‘shtgan asosiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

Ong oqimi texnikasi	inson ongini to‘xtovsiz va tartibsiz oqim sifatida tasvirlash;
Vaqtning subyektiv qabul qilinishi	qahramonlar xotiralarida o‘tgan, hozirgi va kelajak vaqtning birlashib ketishi;
Ichki monolog	qahramonning o‘z-o‘zi bilan suhbati orqali ruhiyatini ochish;
Ong osti jarayonlari	yashirin his-tuyg‘ular, iztiroblar va orzularni tasvirlash;
Minimalizm va ramziylik	Hemingway misolida ruhiyatni yashirin ishoralar va ramzlar orqali berish.

#### JADVAL 1.2

Xulosa qilib aytganda, modernizm davrida psixologik tahlil badiiy asarning markaziy elementiga aylandi. Yozuvchilar inson ongini chuqr va murakkab jarayon sifatida tasvirlab, realizmdagi an’anaviy psixologik tahlil usullarini kengaytirdilar. Bu jarayon keyinchalik postmodernizm adabiyotida yangi shakllar kasb etdi.

Amerika adabiyotida psixologik tahlilning muhim yo‘nalishlaridan biri bu afro-amerika yozuvchilarining ijodidir. Chunki afro-amerika adabiyoti nafaqat estetik jarayonning bir qismi, balki ijtimoiyadolat uchun kurashning ham ifodasi bo‘lib kelgan. Qullikning dahshatli oqibatlari, irqiy tengsizlik, kamsitish, iqtisodiy qiyinchiliklar va madaniy identitet uchun kurash afro-amerikalik yozuvchilar asarlarida inson ruhiyatini chuqr tahlil qilishga sabab bo‘ldi. Afro-amerika adabiyotida psixologik tahlilning asosiy vazifasi shaxsning ruhiy dunyosini tarixiy fojialar bilan bog‘liq holda yoritishdir. Bu jarayonda ruhiy travmalar, xotira va tarixiyadolat masalalari qahramonlarning ichki monologlari, ong oqimi yoki ramziy obrazlar orqali tasvirlanadi.

Eng yirik yozuvchilardan biri Toni Morrison bo‘lib, uning Beloved (1987) romani afro-amerika adabiyotidagi psixologik tahlilning cho‘qqisi hisoblanadi. Asarda bosh qahramon Sethe qullik davridagi o‘zining ruhiy iztiroblari, qo‘rquvlari va xotiralari bilan kurashadi. U o‘z farzandini qulchilikdan saqlash uchun uni o‘ldirishga majbur bo‘lib, bu voqeа uning butun hayoti davomida og‘ir psixologik iztirob manbai bo‘lib qoladi. Roman davomida travma va xotira obrazlari qahramon ruhiyatida qayta-qayta jonlanadi. Morrison bu orqali individual psixologik iztirobni butun afro-amerika xalqining kollektiv xotirasi bilan

<sup>90</sup> Hemingway, E. (2015). The Sun Also Rises. New York: Scribner.





bog'laydi. Bundan tashqari, afro-amerika yozuvchilarining boshqa asarlarida ham psixologik tahlil yetakchi o'rinni tutadi:

Richard Wrightning Native Son (1940) romani afro-amerikalik yigit Bigger Thomasning ruhiy dunyosini, jamiyatdagi kamsitilish va zo'ravonlik ta'sirida shakllangan ichki iztiroblarini olib beradi.

Zora Neale Hurstonning Their Eyes Were Watching God (1937) romani afro-amerika ayolining shaxsiy o'zligini izlash, jamiyat bosimiga qarshi kurash jarayonidagi ruhiy kechinmalarini tasvirlaydi.

James Baldwinning asarlarida esa afro-amerikaliklarning ruhiy iztiroblari ijtimoiy tengsizlik, jinsiy identitet va madaniy chetlatilganlik kontekstida yoritiladi. Afro-amerika adabiyotidagi psixologik tahlilning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Travma va xotira	qullik va irqiy kamsitish oqibatida yuzaga kelgan ruhiy jarohatlar qahramon ruhiyatida asosiy o'rinni tutadi.
Kollektiv xotira	individual kechinmalar butun xalqning tarixiy fojiasi bilan bog'lanadi.
O'zlikni izlash	qahramonlarning ruhiy tahlili ko'pincha shaxsiy erkinlik va identitet uchun kurash bilan chambarchas bog'liq bo'ladi <sup>91</sup> .
Ramziy obrazlar	travma va qo'rquvlarni bevosita tasvirlashdan tashqari, ramzlar, metaforalar va xotira fragmentlari orqali beriladi.

JADVAL 2.1

Afro-amerika adabiyotida psixologik tahlil inson ruhiyatini chuqur yoritibgina qolmay, balki tarixiyadolat va ijtimoiy haqiqat masalalarini olib berishning samarali vositasiga aylangan. Morrison, Wright, Hurston va Baldwin ijodi shuni ko'rsatadiki, psixologik tahlil orqali afro-amerika adabiyoti nafaqat estetik, balki ijtimoiy-ma'naviy kurashning ham muhim qismiga aylangan.

Amerika adabiyotida psixologik tahlil yozuvchilarining badiiy mahorati va estetik tamoyillariga qarab turli metodlar orqali amalga oshirilgan. Har bir davr va adabiy oqim inson ruhiyatini o'ziga xos uslubda tasvirlashga intildi. Shu bois Amerika adabiyotida psixologik tahlilning ko'p qatlamlari metodlari shakllandi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

*1. Ichki monolog*

<sup>91</sup> Morrison, T. (2018). Beloved. New York: Alfred A. Knopf.



Ichki monolog qahramonning o‘z-o‘zi bilan suhbatlashuvi orqali ruhiy kechinmalarini ochib berish metodidir. Ushbu usul qahramonning yashirin fikrlari, shubhalari va iztiroblarini bevosita ifodalash imkonini yaratadi. Masalan, Henry James asarlarida qahramonlarning qaror qabul qilish jarayonlari ichki monolog orqali ko‘rsatiladi. Bu metod kitobxonni bevosita qahramon ruhiyatiga yaqinlashtiradi.

### *2. Ong oqimi (stream of consciousness)*

Ong oqimi usuli inson ongidagi fikrlar, xotiralar va hissiyotlarning tartibsiz va uzlusiz oqimini tasvirlashga asoslanadi. Bu metod asosan modernizm adabiyotida keng qo‘llanildi. William Faulknerning *The Sound and the Fury* romani bunga yorqin misoldir<sup>92</sup>. Qahramonlarning ongida kechayotgan parcha-parcha xotiralar, vaqtning chiziqli bo‘lmagan tasviri inson ruhiyatining murakkabligini yoritadi.

### *3. Psixoanalitik metod*

XX asrda Freydning psixoanaliz nazariyasi adabiyotshunoslik va ijod jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatdi. Amerika yozuvchilari ong osti jarayonlarini, yashirin istak va qo‘rquvlarni psixologik tahlil markaziga qo‘ya boshladilar. Masalan, Toni Morrisonning *Beloved* asarida travma va xotira qahramon ruhiyatini boshqaruvchi asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi. Psixoanalitik metod yordamida yozuvchilar insonning yashirin qatlamlarini ochishga harakat qildilar.

### *4. Simvolik-psixologik tasvir*

Ba’zi yozuvchilar qahramon ruhiyatini bevosita emas, balki ramzlar, metaforalar va obrazlar orqali ochib berdilar. Bu metod Hemingway ijodida keng qo‘llanilgan. Uning “muz tog‘i nazariyasi” shuni anglatadiki, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini to‘liq ochib berilmaydi, balki ramziy ishoralar orqali kitobxon tomonidan tushuniladi.

### *5. Dialoglarda yashirin psixologiya*

Realizm va modernizm davrida dialoglar nafaqat voqeani rivojlantirish, balki qahramonlarning ichki dunyosini ochish uchun ham xizmat qildi. Edith Wharton yoki F. Scott Fitzgeraldning *The Great Gatsby* romanida dialoglar orqali qahramonlarning ichki iztiroblari va yashirin his-tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi.

### *6. Travmatik narrativ*

Afro-amerika adabiyotida keng qo‘llanilgan metodlardan biri bu travma va xotira asosida qurilgan narrativdir. Richard Wright va Toni Morrisonning asarlarida individual ruhiy jarohatlar butun xalqning tarixiy xotirasi bilan bog‘lanadi. Bu metod orqali ruhiy tahlil nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va kollektiv darajada amalga oshiriladi. Amerika adabiyotidagi ushbu metodlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik tahlil bir xil shaklda emas, balki turli badiiy vositalar orqali namoyon bo‘lgan. Ichki monolog va ong oqimidan tortib, ramziy obrazlar va travmatik narrativ largacha bo‘lgan metodlar inson ruhiyatini chuqr o‘rganishning turli imkoniyatlarini ochib berdi<sup>93</sup>.

<sup>92</sup> Faulkner, W. (2013). *The Sound and the Fury*. New York: Random House.

<sup>93</sup> Bradbury, M. (2001). *The Modern American Novel*. Oxford: Oxford University Press.



Postmodernizm davrida Amerika adabiyotida psixologik tahlil yangi ko‘rinishlarga ega bo‘ldi. Modernizm davrida qahramon ruhiyati ko‘proq ichki monolog va ong oqimi orqali o‘rganilgan bo‘lsa, postmodern yozuvchilar inson ongini zamonaviy jamiyatning ijtimoiy, texnologik va madaniy bosimlari bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlashga e’tibor qaratdilar. Bu davrda psixologik tahlil ko‘pincha istehzo, parodiya, kollaj va fragmentlangan narrativ shakllarida namoyon bo‘ladi<sup>94</sup>. Postmodern adabiyotning yorqin namoyandalaridan biri Don DeLillo bo‘lib, uning White Noise (1985) romani postmodernizmning psixologik tahlil imkoniyatlarini yaqqol ko‘rsatadi. Roman zamonaviy insonning ruhiy dunyosi, qo‘rquv va xavotirlari, o‘lim haqidagi obsesiv fikrlari hamda ommaviy madaniyat ta’sirida ongning shakllanishini chuqur ochib beradi. Romanning bosh qahramoni Jack Gladney – kichik universitetning professoridir. U tashqi jihatdan oddiy hayot kechirayotgandek tuyuladi, biroq uning ruhiy dunyosida chuqur qo‘rquv va izziroblar yashirin. Asarda eng muhim psixologik motivlardan biri bu o‘lim qo‘rquvidir. Jack va uning rafiqasi Babette o‘limni doimiy ravishda o‘ylaydilar va undan qochish yo‘llarini izlaydilar. Babette hatto maxsus dorilar (“Dylar”) qabul qiladi, biroq bu ham ruhiy tinchlik bermaydi.

DeLillo psixologik tahlilni bevosita ichki monolog yoki ong oqimi orqali emas, balki parodik dialoglar, media tasvirlari va zamonaviy iste’mol jamiyatining absurd belgilarini qo‘llash orqali amalga oshiradi. Masalan, televizor ovozlari, supermarketdagi reklamalar yoki gazeta sarlavhalari qahramon ruhiyatining ichki holatini yorituvchi vosita sifatida ishlataladi. Bu uslub shuni ko‘rsatadiki, postmodern insonning ruhiyati tashqi madaniy muhitdan ajralgan holda mavjud emas, balki aksincha, doimiy ravishda media va reklama oqimi bilan shakllanadi.

White Noise romanida psixologik tahlilning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagi lardan iborat:

O‘lim qo‘rquvi markaziy psixologik motiv sifatida ko‘rsatiladi;
Media va reklama qahramonlarning ongiga chuqur ta’sir etuvchi psixologik fon vazifasini bajaradi;
Ironiya va istehzo qahramonlarning ongiy izziroblarini ko‘rsatishda asosiy badiiy uslub sifatida qo‘llaniladi;
Texnologik muhit – inson ruhiyatini o‘rab turgan yangi psixologik makon sifatida tasvirlanadi;
Fragmentlangan narrativ – ongning zamonaviy jamiyatdagi parcha-parcha holatini ifodalaydi.

#### JADVAL 2.2

Demak, Don DeLillo ijodida psixologik tahlil modernistik introspektiv metodlardan farqli ravishda, postmodern ijtimoiy-madaniy kontekst bilan uyg‘unlashadi. White Noise

<sup>94</sup> DeLillo, D. (2005). White Noise. New York: Viking Press.



o‘z zamonasi uchun dolzarb bo‘lgan savolni qo‘yadi: texnologiya va ommaviy madaniyatning hukmronligi ostida inson ruhiyati qanday shakllanadi va o‘lim qo‘rquvini qanday yengadi?

### XULOSA

Adabiyotda psixologik tahlil inson ruhiyati va ichki dunyosini yoritishda eng muhim metodlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat individual shaxsning his-tuyg‘ularini, qo‘rquv va iztiroblarini ochib beradi, balki jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va tarixiy jarayonlarning shaxs ongiga ta’sirini ham chuqur anglash imkonini yaratadi. Amerika adabiyoti misolida shuni ko‘rish mumkinki, har bir davr psixologik tahlilga o‘ziga xos metodlarni olib kirdi: realizm davrida ichki monolog va dialoglar, modernizm davrida ong oqimi va ichki introspektiv izlanishlar, postmodernizm davrida esa fragmentlangan narrativ, istehzo va ommaviy madaniyat ramzları orqali inson ruhiyatini yoritish usullari shakllandi. Afro-amerika yozuvchilarining asarlarida psixologik tahlil tarixiy travmalar va kollektiv xotira bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, inson ruhiyatini ijtimoiy adolat uchun kurash kontekstida ko‘rsatadi. Toni Morrisonning Beloved asaridagi travmatik ruhiy iztiroblar yoki Richard Wrightning Native Son romanidagi ijtimoiy kamsitilishdan kelib chiqqan ruhiy bosimlar bunga yorqin misoldir. Postmodern yozuvchilar, xususan, Don DeLillo o‘zining White Noise romanida inson ruhiyatini zamonaviy texnologik jamiyat va ommaviy madaniyat ta’sirida tahlil qiladi. O‘lim qo‘rquvi, media va reklamaning ongga kirib borishi, istehzo va absurd tasvirlar orqali qahramonlarning psixologik holati yoritiladi. Xulosa qilib aytganda, adabiyotdagи psixologik tahlil inson ruhiyatini yoritishning eng muhim vositalardan biri bo‘lib, u yozuvchining badiiy mahorati bilan uyg‘unlashgan holda individual shaxsiy kechinmalarni ham, butun jamiyatning ruhiy-madaniy muammolarini ham ochib berishga xizmat qiladi. Amerika adabiyotidagi bu jarayon insonning ichki dunyosi qanchalik murakkab, ko‘p qirrali va tarixiy omillar bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatib berdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bradbury, M. (2001). The Modern American Novel. Oxford: Oxford University Press.
2. DeLillo, D. (2005). White Noise. New York: Viking Press.
3. Faulkner, W. (2013). The Sound and the Fury. New York: Random House.
4. James, H. (2019). The Portrait of a Lady. Boston: Houghton Mifflin.
5. Hemingway, E. (2015). The Sun Also Rises. New York: Scribner.
6. Morrison, T. (2018). Beloved. New York: Alfred A. Knopf.